



## O'ZBEK TILI TA'LIMIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

**Asilova Gulshan**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori*

*E-mail: [gulshanasilova@gmail.com](mailto:gulshanasilova@gmail.com)*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995172>

**Annotatsiya.** *Tanqidiy fikrlash layoqati insoniyat tarixida taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Uni shakllantirish kichik yoshdan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Til ta'limida ham tanqidiy fikrlash texnologiyasini qo'llashning turli usullari mavjud. Mazkur maqolada animatsion filmlarni ko'rish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalari berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *o'zbek tili, tanqidiy fikrlash, videomaterial, ratsional savollar, “Blum moychechagi”.*

**Abstract.** *The ability of critical thinking is one of the key factors of progress in human history. The formation of this ability occurs in the learning process from an early age. There are different ways to apply critical thinking technology in language teaching. The article presents strategies for developing students' critical thinking skills through watching animated films.*

**Key words:** *Uzbek language, critical thinking, video material, rational questions, “Bloom's flower”.*

Bugungi kunda o'quvchi-talabalarining ongiga turli xil kontentlardan axborot oqib kiradi. Bu axborotni “saralash” va diqqatni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi miyani ortiqcha yoki noxolis ma'lumotlar, subyektiv qarashlardan asraydi. Mehnat bozorida ish beruvchilar xodimdan talab qiladigan asosiy ko'nukma-malakalar ro'yxatiga murakkab masalalarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, kreativlik, insonlarni boshqarish, muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish, emotsional intellekt, mushohada qilish va qarorni tez qabul qilish, muzokara olib borish, kognitiv moslashuvchanlik kiritilgan [1]. Ko'ramizki, tanqidiy fikrlash ikkinchi o'rinda turadi. Tanqidiy fikrlash uchun, avvalambor, tahlil qilish, kuzatuvchanlik va mushohada qilish ko'nikmalari bo'lishi kerak.

Tanqidiy fikrlash konsepsiyasi insoniyat tarixida qariyb 2500 yillik tarixga ega [2]. Termin sifatida esa XX asr oxirlarida tilga olinib boshlagan. M.Skriven va R.Pol fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash umume'tirof etilgan intellektual qadriyatlarga, ya'ni aniqlik, shaffoflik, uzviylik, dolzarblik, asosli isbot va sabablar, mazmundorlik, adolat kabilarga asoslanadi [3]. Tanqidiy yondashuv bir qator ko'nikmalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Ular qanchalik rivojlangan bo'lsa, insonning tanqidiy fikrlash darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Xususan, zudlik bilan qaror qabul qilish



kerak bo'lganda tanqidiy fikrlash boshqalarni tezroq tushunish, ularning fikrini tezroq anglash, o'z fikri va qarashlarini asoslab berish hamda optimal qaror qabul qilishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlaydigan o'quvchi yangi sharoitlarga tez ko'nikadi, yangi strategiyalarni topadi, tizimli harakat qiladi, haqiqatni yolg'ondan, to'g'ri axborotni noto'g'ri axborotdan ajrata oladi.

Tanqidiy fikrlash malakasi quyidagilardan tashkil topadi:

- taklif etilayotgan axborot va undagi xulosalarning ishonchliligi hamda asosli ekanligini baholash layoqati;
- muammolarni yechishning nostandart usullariga ochiqlik, yangi hodisalarni o'rganishga intilish;
- fikrni asoslashda qo'llanadigan noto'g'ri strategiyalarni ajrata olish malakasi;
- o'z fikrini shakllantirish uchun axborotni tizimlashtirish layoqati;
- o'zining shaxsiy fikri, nuqtayi nazarini himoya qilish, opponet rad etib bo'lmaydigan dalillar keltirganda esa uni qayta ko'rib chiqish malakasi;
- mantiqiy tadqiq metodlarini bilish va ularni qo'llash layoqati;
- xolis bo'lish: haqiqatga erishish uchun o'ziga ma'qul fikrlar, qarashlardan voz kecha olish.

Tanqidiy fikrlaydigan shaxs axborotni qabul qilishdan avval nafaqat uni tekshiradi, balki undan keraksizini ajrata biladi, undagi har bir jihatni sinchiklab tekshiradi. O'ziga "Bu menga nimaga kerak?" degan savolni berishga odatlanadi.

Til ta'limida tanqidiy fikrlash matn, videomaterial ko'rinishidagi axborotning asosiy g'oyasini tez belgilash, dalillarni izlab topish va tahlil qilishga yordam beradi. Shuningdek, ta'limga ongli ravishda yondashish va uni to'g'ri rejalashtirishga ko'maklashadi. Shu bois tanqidiy fikrlash texnologiyasi ta'lim jarayonida samarasi yuqori bo'lgan texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchini dalillarga, mantiqqa, aniq faktlarga tayanishga undaydi. Buning uchun mavjud ma'lumotlar tahlil qilinadi va taqqoslanadi. O'quvchi o'z oldida turgan muammoni tahlil qilish jarayonida vaziyatni qismlarga ajratib, tafsilotlarini belgilaydi. Tafsilotlarni sintez qilish, ya'ni vaziyatni to'liq anglash uchun muammoning alohida qismlarini bir butunga birlashtiradi. Faktlarni solishtirish orqali turli xil hodisalar o'rtasidagi farqlarni taqqoslaydi. Masalaning mohiyatini anglash va muammoning ildizini ko'rish uchun keraksiz, muhim bo'lmagan elementlardan voz kechadi. Taniqli olim B.Blum tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnikaning muallifi bo'lib, uni aksariyat metodistlar "Blum



moychechagi”, ayrimlari “Blum kubi” deb ataydilar [4]. Mazkur texnika savolni to‘g‘ri qo‘yishni o‘rgatadi.

Til ta‘limida “Blum moychechagi” texnikasini qo‘llash uchun o‘quv materiallaridan matnlar, shuningdek, videomateriallar tanlanadi. O‘quv materiali bilan ishlashda savollarni qay tarzda tuzish muhim hisoblanadi. V.Snetkov: “Yaxshi savol – muqobil javoblarga yetarli darajada ko‘p imkon qoldiradigan savol” deb ta‘kidlagan va savollarning quyidagi vazifalarini belgilagan: yangi axborot olish; mavjud axborotni aniqlashtirish; suhbatni boshqa mavzuga o‘tkazish; javobga yo‘l ko‘rsatish; o‘z fikrini, bahosini, qarashini namoyish qilish; suhbatdoshining ongi va tuyg‘ularini muayyan yo‘nalishga qaratish [5]. To‘g‘ri tuzilgan savollar o‘quvchini vaziyatni tahlil qilish va unga turli rakuraslardan qarashga o‘rgatadi. Buning uchun qanday savollar tuziladi?

*Oddiy savollar* – berilgan axborotdagi faktlarni eslab qolishga qaratiladi. Asosan *Kim? Nima? Qachon? Nechanchi yilda?* kabi so‘roqlardan boslanadi.

*Aniqlashtiruvchi savollar* – axborotning biror aytilmagan, ammo nazarda tutilgan jihatini aniqlashtirishga qaratiladi, o‘quvchidan diqqatni, kuzatuvchanlikni, muhim detallarga e‘tibor berishni talab qiladi.

*Tushuntirishga qaratilgan savollar* – sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirishga undaydi. Hodisa, xatti-harakatning sababi ochiq ko‘rsatilmagan, ammo javobga mantiqiy fikrlash orqali boriladigan holatlarni aks ettiradi. Asosan *Nima uchun? Nima sababdan?* so‘roqlaridan boshlanadi.

*Amaliy savollar* – nazariya va amaliyotni bog‘lashga qaratiladi. Berilgan axborotni o‘quvchi hayotda qanday qo‘llashini ko‘rsatishga undaydi.

*Baholashga qaratilgan savollar* – biror hodisa, xatti-harakatni baholash mezonlarini aniqlashni taqozo qiladi. Ba‘zan qiyoslashni talab qiladi.

*Ijodiy savollar* – o‘quvchida ijodkorlik, kreativlik, nostandart qarash va yondashuvlarni rivojlantirishga qaratiladi. Berilgan axborotni davom ettirish, berilmagan ma‘lumotlar haqida taxmin qilish, faraz qilish kabi vazifalarni bajarishga undaydi.

Quyida maktab o‘quvchilariga namoyish etiladigan animatsion film bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchi-talabalarga berilgan topshiriqni keltiramiz.

1. Animatsion filmni diqqat bilan ko‘ring.
2. Film bo‘yicha 5 xil savol tuzing:
  - aniqlashtiruvchi savol,
  - tushuntirishga qaratilgan savol,
  - amaliy savol,



- baholashga qaratilgan savol,
- ijodiy savol.

Talabalar quyidagi kabi savollarni tuzdilar.

1. Aniqlashtiruvchi savollar: *Multfilm qahramonining yo'lida qaysi belgi uchradi? Voqea qaysi joyda ro'y berdi? Yangi bog'da eng avval nechta gul unib chiqdi?*

2. Tushuntirishga qaratilgan savollar: *Nima uchun boshqa gullar yashash uchun kurashmadi? Yangi gullarning unib chiqishi nimani anglatadi? Suvli va suvsiz taraflarni qarama-qarshi qo'yishning sababi nima?*

3. Amaliy savollar: *Asosiy qahramonning o'rnida bo'lganingizda hayotingizni xatarga qo'yarmidingiz? Uni atrofingizdagi qaysi insonlarga o'xshatdingiz?*

4. Baholashga qaratilgan savollar: *Oxiri nima bilan tugashini bilmasdan tavakkal qilish to'g'rimi? Asosiy qahramon maqsadiga erishdimi? Erishilgan natija o'zini qurbon qilishga arziydimi?*

5. Ijodiy savollar: *Gul suvga yetib borganida, voqea qanday yakun topar edi? Isyonkor gul qarama-qarshi tarafda unib chiqqanida voqea qanday rivoj topar edi? Yosh nihollarning taqdiri qanday kechadi deb o'ylaysiz?*

Yuqoridagi kabi savollarga javob berish shunchaki axborotni eslab qolishni emas, uni tahlil qilish, hayotda qo'llash, undan motivatsiya olish, unga baho berishni taqozo qiladi. Bunday ko'nikmalar bugungi davrda ham ilmiy faoliyatda, ham kundalik hayotda juda zarur va ularni kichik yoshdan rivojlantirish muhim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анализ востребованных в современном мире профессиональных компетенций работающего населения. URL: [https://kpfu.ru/portal/docs/F\\_1071960395/2..Analiz.vostr.komp.pdf](https://kpfu.ru/portal/docs/F_1071960395/2..Analiz.vostr.komp.pdf)
2. Defining Critical Thinking. URL: <https://www.criticalthinking.org/pages/defining-critical-thinking/766>
3. How to Develop Critical Thinking Skills in Students. URL: <https://www.tigercampus.hk/develop-critical-thinking-skills-in-students/>
4. Загашев И. Умение задавать вопросы // Начальная школа, 2001 (4). –С. 13.
5. Снетков В.М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 116 с.